



“MUHOKAMAT UL-LUG'ATAYN” ASARIDAGI SINONIMIYALAR.

Feruz Boboqulova

NavDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asaridagi sinonimlar tahlil etilgan. Shuningdek, sinonimlarni tahlil qilish davomida Navoiyning so'z semalarini teran anglashi, ularni bir-biriga mos tarzda ishlata olishi hamda arab va fors tillaridagi leksemalarni mohirlik bilan birini ikkinchisiga o'zaro sinonim sifatida qo'llay olishi ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Diqqat, daqoyiq, daqiq, iriq, saloh, farxunda, xujasta.*

So'z mulkingning sultoni - Alisher Navoiyning asarlari necha asrlar o'tsa hamki, o'z qiymatini hamda ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Xalqimiz orasida, nafaqat xalqimiz, balki butun dunyoda uning ijodi katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda. Bunga sabab esa Navoiy asarlari qamrovining kengligi, har davr uchun muhim sanalgan ma'naviy- ma'rifiy mavzularga boyligi va shu bilan birga, ulkan iste'dod namunasi ekanligidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlaridan birida Navoiy bobomiz haqida shunday fikrlarni aytib o'tadilar: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa”.

Bu yil yurtimizda Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash munosabati bilan Navoiy asarlarining targ'iboti har yilgiga qaraganda yanada katta ko'lamda olib borilmoqda. Bu bo'yicha turli xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy konferensiyalar, tadbirlar va bellashuvlar o'tkazilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ushbu ishlarining barchasi xalqimizni Navoiyga bo'lgan cheksiz ehtiromining yorqin namunasi desak, xato bo'lmaydi. Navoiy asarlari o'z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham tengsiz va bebaho bo'lib, ularning har biri adabiyotimiz xazinasining nodir javohirlari sanaladi. Ijodkorning ko'plab asarlari mashhur hisoblanib, ularning orasida, ayniqsa, “Muhokamat ul-lug'atayn” asari o'z mavzusining dolzarbligi va ahamiyatliliigi bilan alohida ajralib turadi. Boisi, bu asarda turk tilining boy til ekanligi, hatto ba'zi jihatlari bilan boshqa tillardan ustun ekanligi ham dalillar bilan ochib berilgan. Turk tiliga nisbatan bepisandroq munosabatda bo'linayotgan bir davrda ushbu asarning yaratilishi turk tilining ko'plab qirralarini ochib bergan o'ziga xos bir yangilik bo'ldi. Navoiy asarda she'riy parchalar, antonimlar va sinonimlardan unumli foydalangan. Sinonimlar leksemalarni takror qo'llamaslik uchun ishlatiladi. Shuningdek, sinonimlar asarlarning badiiy qiymatini oshiradi hamda ijodkorning so'z boyligini ham ko'rsatib turadi. Alisher Navoiy shuning uchun ham o'z asarida sinonimlardan foydalangan. Shu



o'rinda sinonimiyaga qisqacha to'xtalib o'tsak: "Sinonimiya birdan ortiq so'zning leksik ma'nolari o'rtasidagi munosabatda yuzaga chiqadi. Shu munosabatga ko'ra, falon so'z ikkinchi bir so'zga nisbatan olib qarab, uning sinonimi deb yuritiladi.

Birdan ortiq so'zning o'zaro sinonim bo'lishi uchun yana bir necha shartlar bor. Ulardan biri sifatida birdan ortiq so'zning turli talaffuzga, ya'ni turli fonetik tarkibga ega bo'lishi deb ko'rsatiladi. Birdan ortiq so'zning o'zaro sinonim bo'lishi uchun asosiy shart sifatida ulardagi ma'noning bir xilligi, aynan bir xilligi, o'zaro yaqinligi yoki o'xshashligi kabilar aytiladi. Ya'ni sinonimiyada so'zlarning ma'no munosabati uni belgilovchi asosiy shart hisoblanadi".²


Asardagi sinonimiyaga "**diqqat**" va "**daqoyiq**"; "**daqiq**" va "**iriq**"; "**saloh**", "**xush**" va "**xo'b**"; "**kalom**" va "**lafz**"; "**farxunda**" va "**xujasta**" singari sinonimik juftliklarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. "**Diqqat**" va "**daqoyiq**" so'zlari "noziklik" semasi atrofida sinonimlikni hosil qilgan. "**Diqqat**" leksemasi arabcha bo'lib, "ingichkalik, noziklik" degan ma'nolarni anglatadi. Asarda ham shu semada qo'llanilgan: "Yana bir nav' iborat va adolari borkim, birovdin bir ishni gumon eltmak bila ul ishni ul kishiga nisbat guna berurlar, yo'qki, tahqiq yuzidin, balki mazanna va gumon haysiyatidin ammo munda **diqqat** ko'pdur". "**Daqoyiq**" leksemasining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asli arab tiliga oid so'z ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Keyingi sinonimik juftligimiz "**daqiq**" va "**iriq**" leksemalaridir. "Va yoyiy misol uch harakatdin ortuq topilmas *bezki* sort "qadud" der va *bizki* "mo" va "nahnu" ma'nisi biladur va *biyzki* "darafsh" derlar. Yana bir misol: *Terki* andin **daqiqdur**. Uldurki, sortlar ani "araq" va "xay" derlar. Va *tir* ki, boridin **iriqdur**, o'q ma'nisi biladur". Ushbu parchada ishlatilgan "**daqiq**" hamda "**iriq**" leksemalarining ikkalasi ham "nozik" sememasini ifodalab, ma'nodoshlikni yuzaga chiqargan. "**Daqiq**" leksemasining kelib chiqishi arab tiliga taalluqlidir.

"**Saloh**", "**xush**" va "**xo'b**" leksik birliklari ham sinonimik hodisaga misol bo'la oladi. "**Saloh**" leksemasi arab tiliga mansub leksema sanaladi va "yaxshilik", "yaxshi" semalarini anglatadi. "Yaxshi" semasi orqali "**xush**" hamda "**xo'b**" leksemalari bilan sinonimiyani hosil qiladi. "**Xush**" so'zi esa fors tiliga oid bo'lib, "yaxshi, ma'qul" sememalarini bildiradi. Asarda "xush ta'b", "xush mashrab" singari birikmaviy shakllarda foydalanilgan. Bu birikmalarning ma'nosi "yaxshi ta'b" va "yaxshi tabiatli" deganidir. "...Va atrok anga ham **xo'broq** vajah bila mutobaat qilibdurlar". Ushbu gapdagi "xo'b" leksemasi ham yuqoridagi "yaxshi" sinonimik qatorning bir qismi bo'lib, bu leksik birlik ham fors tilidan olingan.

Bundan keyingi leksemalar "**kalom**" va "**lafz**"dir. Ushbu ikki leksema "so'z" semasini ifodalashi bilan sinonimiyani hosil bo'lishiga xizmat qilgan. Shu bilan bir qatorda, "**kalom**" va "**lafz**" leksemalarining kelib - chiqishi ham bir xil bo'lib, arabcha leksik birliklar hisoblanadi. "**Kalom**" leksemasi va "**lafz**" leksemalarining o'zaro sinonim ekanligini quyidagi parchada yanada aniq ko'ramiz: "... maliki allom jalla va

² M. M. Mirtojdiyev – "O'zbek tili semasiologiyasi". T.: "Mumtoz so'z". 2010. 189-b.





aloning **kalomi** mu'jiz nizomi ul til bila nozil va rasul (alayhis – salavot vas-salom)ning ahodisi saodat anjomi ul **lafz** bila vorid bo'lubdur".

Oxirgi sinonimik leksemalarimiz "**farxunda**" va "**xujasta**"dir. Mazkur leksemalarning etimologiyasi fors tiliga oiddir. Ikkala leksemaning birgalikda sinonimik qatorni hosil qiluvchi semasi "go'zal, chiroyli" sememalaridir. "Va bu **farxunda** iborat va **xujasta** alfoz va ishoratda forsiddin ko'proq tajnis omiz lafz va iyhom angez nukta borki, nazmg'a mujibi zeb va ziyinat va boisi takalluf va san'atdur". "Muhokamat ul-lug'atayn"dan olingan bu parchada sinonim leksemalar "farxunda iborat" va "xujasta alfoz" yanglig' birikmalar ko'rinishida qo'llanilgan hamda bu birikmalar "chiroylik ibora" va "go'zal belgilar" semalarini ifodalab, sinonimiyani shakllanishiga zamin yaratgan.

Navoiy bu sinonimlar tufayli asarni mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal qilib yaratgan. Bir so'z bilan aytganda, sinonimlar asarning badiiy saviyasini oshirgan va uslubiy g'alizlikning oldini olgan. Sinonim leksemalarning fors va arab tillariga mansubligi esa Navoiyning zullisonayn ijodkor ekanligiga hamda so'z qo'llash bo'yicha katta tajriba va mahorat sohibi ekanligiga yana bir isbot bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M. M. Mirtojyev – "O'zbek tili semasiologiyasi". T.: "Mumtoz so'z". 2010.
2. Alisher Navoiy – "Muhokamat ul-lug'atayn". MAT. 20 jildlik.- T.: "Fan". 2000. 16-jild.
- 3."Navoiy asarlari lug'ati". T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972.
4. "Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at". T.: "Fan" 1993.

